

KONSTITUTSIYA ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Parmonqulova Umida Toxir Qizi

*Toshkent davlat agrar universiteti Agroiqtisodiyot
logistika va xizmatlar fakulteti 2-bosqich talabasi*

Jalolov Sherzod Rustamovich

Huquqshunoslik kafedrasini mudiri.

Yuridik Fanlar Doktori (Phd) dotsent.

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasining avvalgi tahrirdan asosiy farqlari tahlil qilingan. Inson huquqlari va erkinliklarining kengayishi, davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimining isloh qilinishi kabi masalalar atroflicha yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy himoya, xususiy mulk, ommaviy axborot vositalari va insonning shan'i va qadr-qimmatini ifodalash bo'yicha kiritilgan yangi qoidalar muhokama etilgan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, farmoyish, referendum, demokratiya, norma, huquqiy davlat, xususiy mulk, javobgarlik, senzura.

Аннотация: В данной статье анализируются основные отличия новой редакции Конституции Узбекистана от предыдущей редакции. Подробно освещены такие вопросы, как расширение прав и свобод человека, государственное управление и реформа судебной системы. Также обсуждались новые правила социальной защиты, в отношении частной собственности, средств массовой информации и выражения человеческого достоинства и ценности.

Key words: Constitution, decree, referendum, democracy, norm, rule of law, private property, responsibility, censorship.

Annotation: This article analyzes the main differences between the new version of the Constitution of Uzbekistan and the previous version. It covers in detail issues such as the expansion of human rights and freedoms, the reform of public administration and the judicial system. It also discusses new provisions on social protection, rules on private property, the media, and the expression of human dignity and worth.

Ключевые слова: Конституция, указ, референдум, демократия, норма, верховенство закона, частная собственность, подотчетность, цензура.

Bugun O'zbekiston Respublikasi yangi taraqqiyot va muvaffaqiyatlar yo'lidan dadil qadam tashlamoqda. Barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalambor, xalq farovonligi, fuqarolarning munosib turmush tarzi va sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan. Mamlakatimiz Asosiy qonunida insonning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi belgilab

(12th international scientific and practical conference)

qo'yilgan. Odamlarda adolat va qonun ustuvorligiga ishonch bor. Asosiysi, mamlakatimiz fuqarolarining hayot va ijtimoiy jarayonlardagi muammolarni hal etishda ishtirok etishga intilishi kundan-kunga ortib bormoqda.

Mustaqil davlatimiz Konstitutsiyasi qabul qilinganining 33 yilligi har yilgidan ko'ra o'zgacha shukuh bilan nishonlanishi tabiiydir. Negaki, 2023-yilda tubdan yangilangan Bosh qomusimizni umumxalq referendumida asosida qabul qildik hamda milliy davlatchiligimiz tarixida ilk bor barcha ustuvor qoidalari to'g'ridan-to'g'ri qo'llanadigan mukammal Konstitutsiyaga ega bo'ldik. Jamiyatimizda qonun ustuvorligini ta'minlash fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish har birimizning muqaddas burchimizdir. Bu burch va huquqlarimiz dunyoning barcha mamlakatlarida mavjud bo'lganidek, Respublikamizning asosiy qonuni bo'lmish Konstitutsiyamizda belgilab berilgan. Eng avvalo, Konstitutsiya milliy davlatchiligimiz, suverenitetimiz, shu kunga qadar erishgan barcha yutuq va marralar, demokratik huquqiy davlat barpo etish yo'lidagi sa'y-harakatlarimizning mustahkam poydevori hisoblanadi. U nafaqat huquqiy, ijtimoiy va siyosiy, balki barchani jipslashtiradigan, fuqarolar o'z orzu-umidlari, huquq va manfaatlari yechimini ko'radigan hujjatdir. Yangi O'zbekiston hayotining turli sohalarida izchil davom etayotgan keng ko'lamli, qamrovdor va shiddatli islohotlar natijalarini mustahkamlashda yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning o'rni beqiyosdir. Aytish kerakki, konstitutsiyaviy islohot har qanday davlatdan qat'iy siyosiy iroda, jasorat, muhimi, muayyan sharoitni taqozo etadi. Konstitutsiya yoki uning bironta qoidasini zamon va makon talabiga zid ravishda o'zgartirib bo'lmaydi. Bizda esa davlatimiz rahbari tashabbusi asosida keyingi 7 yilda ro'yobga chiqarilgan o'zgarishlar uni takomillashtirish zaruratini tug'dirdi. Ta'bir joiz bo'lsa, bu davrda islohotlar shu qadar keng ko'lam va shiddat kasb etdiki, Konstitutsiya va qonunlardan iborat huquqiy makon ularning zalvarli yukini ko'tarolmay qoldi. Shu bois, Prezidentimiz tomonidan Konstitutsiyani tubdan isloh qilish tashabbusi ilgari surildi. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiya yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichda davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi. Ushbu ustuvor yo'nalishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 16-noyabrda imzolagan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishida alohida ta'kidlangan edi.

Yurtimizda 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ishtirok etgan 17 million nafar fuqarolarning 90,21 foizi tomonidan yoqlab ovoz berish orqali qabul qilinganligi, xalqimizning Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha orzu-umidlari va intilishlari o'z aksini topganligidan dalolat bermoqda. Shuningdek, Referendum ko'p millatli buyuk

(12th international scientific and practical conference)

xalqimizning birdamliligi va hamjihatligi, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishga qat'iy qaror qilganligining ishonchli ifodasi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning yangi tahriri 2023-yil 1-maydan e'tiboran kuchga kirdi. Bunga 30-aprel kuni bo'lib o'tgan referendum natijasiga ko'ra 11 ta moddadan iborat tegishli qonunning qabul qilinishi asos bo'ldi. Bunga qadar 1992 yildan buyon konstitutsiyaga jami 15 marta o'zgartish kiritilgan edi. Bu safar esa o'zgarishlar ko'lami kattaligi sabab hujjatning yangi tahriri qabul qilindi. Yangilanish natijasida, bosh qomusdagi moddalar soni 128 tadan 155 taga, undagi normalar esa 275 tadan 434 taga oshdi. Bundan tashqari Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi 7 turdagi nazariy va amaliy, ilmiy va huquqiy ekspertizadan ham o'tkazildi. Umuman, rasmiy xabarlarga ko'ra, konstitutsiya 65 foizga yangilangan. Asosiy qonunimizda "inson – jamiyat – davlat" tamoyili ustuvor qo'yildi va fuqarolarning shaxsiy huquqlari keng ko'lamlari masalalarni qamrab olgan normalar bilan yanada mustahkamlandi.

Davlatimiz rahbari Konstitutsiyamizda ilk bor O'zbekistonga huquqiy davlat degan ta'rif berilganiga e'tibor qaratdi. Konstitutsiyada inson huquqlari kafolatlariga oid normalar ham 3,5 barobarga ko'paytirildi. Bu – avvalo barcha sohada qonun ustuvorligi ta'minlanadi, degani. Ijtimoiy munosabatlar cheksiz shakllarga ega, ularni normativ-huquqiy hujjatlarda to'liq kodifikatsiya qilib chiqish amalda imkonsiz. Endilikda, qonunchilikda aniq belgilab qo'yilmagan masalalarda ziddiyat yuzaga kelsa, masala davlat emas, inson foydasiga hal etiladi. Bundan tashqari, turli hujjatlarni yuritishda davlat organlari tomonidan xato-kamchilik o'tgan taqdirda, masalan pensiya tayinlashda tegishli hujjatlar bazadan topilmay, noaniqlik yuzaga kelganida ham vaziyat fuqaro foydasiga hal etilishi kerak. Bundan buyon, qonunlardagi noaniqliklar inson foydasiga hal bo'ladi.

Barchamizga ma'lumki, inson huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Agar insonning oilasini, mol-mulkini, uy-joyini devorlari himoya qilsa, Konstitutsiya shu devorning huquqiy poydevori sifatida maydonga chiqadi. Konstitutsiya jamiyat va davlat hayotida alohida o'rin tutadi. Konstitutsiya nafaqat normativ huquqiy hujjat, balki u mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Aynan Konstitutsiya qoidalari uning miqyosi, ko'lami, shaxsiy va davlat ahamiyatidan qat'i nazar har qanday huquqiy savolga javob izlashda asosiy ko'rsatma hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 54-moddasiga ko'ra, "Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir. Davlat inson hamda fuqaroning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi". O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi diyorimizning mustaqilligini yorqin namoyon etuvchi asosiy hujjat, baxtimiz qomusi, xalqimizning or-nomusidir. Negaki uning har bir moddasida, har bir bandida xalqaro huquq me'yorlari ham, milliy bag'rikenglik tamoyili ham aks etib turadi. Konstitutsiyaning 4-moddasida qayd qilinganidek,

(12th international scientific and practical conference)

“O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir. O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an‘analari hurmat qilinishini ta‘minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi”. Mamlakatimizda yashayotgan barcha millat vakillari tili, e‘tiqodi, ijtimoiy holatidan qat‘i nazar O‘zbekiston xalqini tashkil qilishi va ularning huquq va manfaatlari, shuningdek e‘tiqod erkinligi mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat‘i nazar qonun oldida tengdirlar”. Konstitutsiyamizda ushbu huquqning aks etishi mamlakatimizda vijdon erkinligi ta‘minlanishining huquqiy asosi sifatida xizmat qilmoqda. Asosiy qonunda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari mazmunini bevosita ochib beruvchi ko‘plab moddalar mavjud. Uning muqaddimasidan tortib, yakunlovchi qoidalariga qadar inson, uning farovonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik g‘oyalari singdirilgan.

Shuningdek, Konstitutsiyamiz o‘zining insonparvarligi bilan ham ajralib turadi. Unga ko‘ra Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta‘lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo‘lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta‘lim olishini, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishini ta‘minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag‘batlantiradi. Ma‘lumki, Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonlaridan hozirgi kunda biz yoshlarga ham juda katta imkoniyatlar berilmoqda. Aynan shu ham Konsitutiya da belgilab qo‘yildi, ya‘ni “Davlat fuqarolarning bandligini ta‘minlash, ularni ishsizlikdan himoya qilish, shuningdek kambag‘allikni qisqartirish choralarini ko‘radi. Davlat fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil etadi hamda rag‘batlantiradi”

Eslatib o‘tish joizki, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev konstitutsiya islohoti haqida 2021 yil 6 noyabr kuni, ikkinchi prezidentlik muddatiga kirishishi yuzasidan inauguratsiya marosimidagi nutqida birinchi marta aytib o‘tgan edi. Davlat rahbari o‘sha yili dekabr oyida, konstitutsiya bayrami arafasida xalqqa yo‘llagan tabrigida: “Konstitutsiyani yangilashdek g‘oyat muhim, strategik vazifani hal etishda yetti marta emas, yetmish marta o‘ylash” zarurligini ta‘kidlagan edi. 2022 yil may oyida konstitutsiyaviy komissiya tuzilib, hujjatni yangilash jarayoni boshlandi. Konstitutsiya qabul qilingan kun sifatida bundan keyin ham 1992 yil 8 dekabr sanasi e‘tirof etilishi va 8 dekabr – bayram sanasi o‘zgarmasligi belgilab qo‘yildi.

Umuman olganda, Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasi mamlakatning huquqiy-demokratik tamoyillarini yanada chuqurlashtirish va jamiyatning zamonaviy ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanishini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

(12th international scientific and practical conference)

Inson huquqlari va erkinliklarini kengaytirish, davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini isloh qilish orqali ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga erishiladi. Shuningdek, ijtimoiy himoya, xususiy mulk, ommaviy axborot vositalari erkinligi va inson qadr-qimmatining huquqiy kafolatlari haqidagi yangi qoidalar jamiyatning har bir a'zosiga o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradi. Ushbu islohotlar Konstitutsiyani nafaqat milliy, balki xalqaro standartlarga moslashtirgan holda, O'zbekistonni inson huquqlarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etuvchi taraqqiy etgan davlatlar qatoriga olib chiqishning mustahkam asosiga aylanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, erkin va farovon hayot faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki normativ-huquqiy kafolatlarning real ishlashi, adolatli sud tizimining shakllanganligi, davlat organlarining javobgarligi va fuqarolarning faol ijtimoiy pozitsiyasi bilan ta'minlanadi. Yangi Konstitutsiyada ijtimoiy davlat modeli, munosib hayot darajasi, ta'lim va sog'liqni saqlash kafolatlari, ekologik xavfsizlik, xususiy mulk daxlsizligi va tadbirkorlik erkinligi kabi qator normalar farovon jamiyat qurilishining yuridik poydevorini yaratdi. **Erkin va farovon hayot — tasodifan emas, Konstitutsiya bilan himoya qilingan ongli tanlovdur.**

Taklif va tavsiyalar:

Aholining huquqiy ongini oshirish va konstitutsiyaviy madaniyatni zamonaviy standartlar asosida shakllantirish maqsadida “Raqamli Konstitutsiyaviy Savodxonlik” milliy platformasini yaratish dolzarb vazifa hisoblanadi. Globallashuv jarayonida Konstitutsiya nafaqat normativ-huquqiy hujjat sifatida, balki keng jamoatchilik uchun qulay, tushunarli va interaktiv qo'llanma sifatida faol ishlashi talab etiladi. Shu bois konstitutsiyaga oid bilimlarni raqamli texnologiyalar asosida ommalashtirish aholi huquqiy ongini oshirishning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida maydonga chiqmoqda.

Birinchi, platforma tarkibida animatsion huquqiy darslar modulining joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Konstitutsiyaning bo'lim va boblari mazmunini sodda, vizual va tushunarli shaklda yorituvchi animatsion videoroliklar, infografiklar hamda real hayotiy misollar asosidagi huquqiy situatsiyalar yoshlar va keng jamoatchilik tomonidan asosiy qoidalarni tez va samarali o'zlashtirilishiga xizmat qiladi. Shuningdek, interaktiv test va baholash tizimini yaratish aholining konstitutsiyaviy savodxonlik darajasini raqamli usulda aniqlash uchun zarur hisoblanadi. Bosqichma-bosqich murakkablashib boruvchi testlar, huquqiy case-study'lar va onlayn sertifikat tizimi fuqarolarning bilimlarini baholash, davlat xizmatchilari va talabalarning huquqiy madaniyatini muntazam oshirib borish imkonini beradi.

Platformaning yana bir muhim yo'nalishi sifatida “Konstitutsiyaviy Maslahatchi” sun'iy intellekt tizimini yaratish taklif etiladi. Ushbu tizim fuqarolarning Konstitutsiya normalari, inson huquqlari, davlat organlariga murojaat qilish tartiblari

(12th international scientific and practical conference)

bo'yicha bergan savollariga real vaqt rejimida javob qaytaradi, zarur huquqiy yo'riqnomalar taqdim etadi va tegishli moddalarni aniq ko'rsatib beradi. Bunday texnologiya, ayniqsa, nogironligi bo'lgan shaxslar va chekka hududlarda yashovchi aholiga yuridik maslahat olishda teng imkoniyat yaratadi. Konstitutsiyaviy bilimlarni targ'ib qilishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. O'yinlashtirilgan topshiriqlar, motivatsion missiyalar va daraja tizimi yoshlar o'rtasida huquqiy bilimlarni qiziqarli shaklda o'zlashtirishga turtki bo'ladi.

Ushbu platformaning davlat organlari hamda ommaviy axborot vositalari bilan integratsiya qilinishi esa konstitutsiyaviy savodxonlikni jamiyat miqyosida tizimli ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi. Adliya vazirligi, ta'lim muassasalari, yoshlar tashkilotlari va boshqa idoralar bilan uyg'un holdagi raqamli hamkorlik konstitutsiyaviy madaniyatning izchil oshib borishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, platformaning maxsus imkoniyatlarga ega fuqarolar uchun moslashtirilgan versiyasini yaratish inklyuziv yondashuvni ta'minlaydi. Eshitish imkoniyati cheklangan shaxslar uchun subtitrlar, ko'rish imkoniyati cheklanganlar uchun ovozli interfeys hamda dizayn kontrasti kuchaytirilgan menyularning mavjudligi barcha toifalardagi fuqarolar uchun teng huquqiy imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar va resurslar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahriri) 2023
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (avvalgi tahriri) 1992
3. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi- Birlashgan Millatlar Tashkiloti hujjatlari, 1948-yil.
4. O'zbekiston Respublikasining 2025 yil 9 iyundagi O'RQ-1067-sonli Qonuni <https://lex.uz/docs/-7561827>
5. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 17-oktyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi <https://lex.uz/docs/-7160383>
6. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi
7. Qutbidin Burxonov Oliy Majlisi Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi. <https://senat.uz/post/post-2996>
8. Shavkatov M. "Konstitutsiya va huquqiy islohotlar." Toshkent: Yangi O'zbekiston 2023